


GLOBOLIZATSIYA

Otamurodov Anvar*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti**Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti**2-bosqich talabasi*

Qisqa sharh: Ushbu maqola hozirgi zamonaviy dunyoda davlatlar qanchalik bir-biriga bog'lanib qolganligi va bu bog'lanish qanday vujudga kelganligi va qayholatda uzilishi mumkunligi va bunday globalizatsiyaning hozirgi kunimizga ta'siri haqida ma'limot beradi. Bundan tashqari maqola davomida poyonsiz, murakkab va qiziqarli global iqtisodiyot yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Globalizatsiya, Erkin savdo, globallashuv, Amerika Qo'shma Shtatlari, Xitoy, Iqtisodiyot, global iqtisodiyot

Xo'sh globalizatsiya nima? Globalizatsiya bu jahon iqtisodiyoti, madaniyatlari, aholisi o'rtasida o'sib borayotgan bog'liqlikni, chegaralar aro tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar savdosini va investitsiya, odamlar va ma'lumot oqimini ifodalovchi atama hisoblanadi.¹ Mamlakatlar asrlar davomida iqtisodiy hamkorlikni vujudga keltirishgan. Lekin to'qsonchi yillarning boshlarida "Sovuq urush" yakunlanganidan keyin bu atama mashhurlashib ketgan. Globalizatsiyaning yaxshi tomonlari va yomon oqibatlari mavjud. Globalizatsiyaning foydali taraflaridan biri shuki, yangi ish o'rinlari, resurslar tufayli keng qamrovli iqtisodiy o'sishdir. Bundan tashqari, bu global hamkorlikka sabab bo'lishi mumkin. Chunki, hamkorlik jarayonida davlatlar siyosiy va ijtimoiy farqlarni chetga surgan holatda ishlashiga to'g'ri keladi. Buning natijasida, siyosiy kanfliktlar ham bartaraf etilishi mumkun. Ammo, tanganing ikkinchi tarafi ham mavjud. Globollashish oqibatida atrof-muhim xavfsizligi pasayadi, ya'ni daraxtlar kesilishi bunga yaqqol misol. Bundan tashqari, transport harakatlari o'sishi oqibatida havoning zaharlanishi ehtimoli ham yo'q emas. Xo'sh globalizatsiya o'sishni davom etadimi yoki Sovuq urush davridagi holatga yana guvoh bo'lamizmi? Quyidagi su'ratda oxirgi ellik yildagi globalizatsiya o'sishi tasvirlangan.



¹ What is globalization? Kirish tartibi: <https://www.ppie.com/microsites/globalization/what-is-globalization> (murojaat qilingan sana: 28.12.2023)

² Has globalization passed its peak? Kirish tartibi: <https://www.statista.com/chart/21821/global-trade-volume-as-a->

Global savdonig portlashi: Siz va biz yashayotgan iqtisodiyot butunlay boshqacha va yangi. Sizning kiyayotgan kiyimlaringiz, ishlatayotgan smartfonlaringiz, uyinggizni qurishga ketgan materiallar, yeyayotgan taominngiz, hamma hammasi global savdoning eng katta yutuqlari hisoblanadi. Qadimda ma'lim bir odamlar guruhi go'yoki afsun paydo qilishdi qachonki ular qandaydir qiymatli mahsulot, masalan bug'doy yetishtirishganda. Ular o'zlariga keragidan ko'proq bug'doy yetishtirishdi va boshqa bir guruh ishlab chiqargan mahsulotga ortib qolgan bug'doyni almashtirishdi. Masalan, chorva-hayvonlariga. Bu holatda ikki taraf ham yetarlicha foyda ko'rishdi. Shundan keyin bu narsa borgan sari rivojlana bordi va hozirgacha biz bu harakatlarni saqlab qolganmiz. Shunisi ma'lumki, inson sivilizatsiyasi doim ular o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalariga bog'liq bo'lgan. Hozirgi kunda esa biz buni shunchaki iqtisodiyot deb ataymiz. Yigirmanchi asr davrlariga kelib, yaxshigina bir-biriga bog'langan dunyo mavjud bo'lib ulgurandi. Dunyoning har nuqtasida global savdo shakllangan edi. Lekin, har xil joyda turli savdo qoidalari, turli pul birliklari kuchda edi. Shunday qilib, davlatlar xorij tovarlari milliy mahsulotlarni sindirishidan havotirga tusha boshlashdi va xorij tavarlarining kirishiga ma'lum to'siqlar va bojlar qo'ya boshlashdi. Keyin esa, yetmish yil avval dunyoni ikkiga bo'lib yuborgan urush yuzaga keldi. Va urush alangalaridan yiroqda Amerika Qo'shma Shtatlari dunyodan eng qudratli davlat bo'lishga erishdi. Dunyoning har bir burchagida uning harbiy kuchlari va ta'siri mavjud edi va bunday kuch bilan Qo'shma shtatlar va uning ittifoqlari dunyoning yangi iqtisodiyoti yangi o'yin qoidalari kitobini yozishdi. Ular AQSH dollarini butun dunyo bo'lib tarqalishiga va uning birinchi darajali bo'lishiga erishishdi. Hamma narsa AQSH pul birligi orqali to'lanadigan bo'ldi. Bu chegaralar bo'ylab mamlakatlarga pulni qabul qilish va jo'natishda yordam berdi. Amerika tovarlarni kamroq boj yordamida sotilishini ta'minlash maqsadida hattoki davlatlarni birlashtirdi. Bunday harakatlar natijasida chegaralar ochildi. Investorlar yangi bizneslarni rivojlantirish uchun yer sharining istalgan nuqtasiga pul toka olish qobiliyatiga ega bo'lishdi. Karparatsiyalar arzon ishchi kuchiga ega bo'lish niyatida uzoq o'lkalarda fabrikalar ocha boshlashdi. Shunday qilib biz yashayotgan dunyo bitta katta bozorga aylantirildi va bundan yuz millionlab odamlar foyda ko'ra boshlashdi. Hattoki, anti-kapitalist hisoblangan Xitoy ham bu glabbalashuvga qarshi turolmadi va o'zining dengiz bo'yi shaharlarini xorij kemalari uchun ochib qo'ydi. Xitoyning ko'plab kambag'al qishloqlari aholisi dengiz bo'yi shaharlariga ko'chib kela boshlashdi. Ular ishlashga va arzon narxda ishlashga tayyorliklarini ko'rsatishdi. Shunday qilib Amerika ham o'zining yirik kompaniyalarini Xitoyga ko'chirishni boshladi. ³ Bu Xitoy va ko'plab boshqa davlatlarga foyfali bo'ldi. Lekin o'zlarining sevimli ishlarini kutilmaganda Shaxaylik xitoyliklarga berib qo'ygan amerikaliklar uchun bu holar umuman yoqimli emas edi. Xitoydagi bu o'zgarishlar birinchi odamlarga bo'gan ulkan ta'sir edi. Do'konlarda tavarlarning narxlari keskin pasayib ketdi. Har qanday mahsulotlar: kiyim-kechaklar, ro'zg'or buyumlari, texnikalar va boshqalar Xitoydagi fabrikalardan oqib kela boshladi. Bundan tashqari bu vaqt

[percentage-of-gdp/](#) (murojaat qilingan sana: 28.12.2023)

³ Is Globalization Good for the Poor in China? Kirish tartibi:

<https://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/2002/09/wei.htm> (murojaat qilingan sana: 28.12.2023)

davomida Vyetnam, Hindiston, Chili, Tailand kabi mamlakatlar ham keskin iqtisodiy o'sishni boshdan o'kazdilar. Odamlar, tovarlar va ma'lumotlarning dunyo bo'ylab kezishi shu tariqa vujudga keldi. Globalizatsiya, ya'ni global savdoga siyosiy tomondan hamma qilishi kerak bo'lan qonun qoidalar o'rnatib qo'yildi. Siyosat milliardlab, ammo turli tilde so'zlashadigan, bir-birini bilmaydigan lekin, bir bozorda bo'lgan odamlar o'rtasida ulkan korporatsiyani vujudga keltirdi. Siyosiy iqtisodiyotning bu kostruksiyasi hozirgi biz bilgan globalizatsiyani vujudga keltirdi.

To'qsoninchi yillarda Sovet Ittifoqi quladi. Erkin savdo va globalizatsiya kommunizmni yengib chiqdi. Erkin savdo qudratli o'rtasidagi ziddiyatlarni to'xtatdi va demokratiyaga yo'l ochdi. Shunday qilib, "Free trade" bir-biriga raqib bo'lgan Yevropa mamlakatlarini ham bir-birini qo'lini siqqan holatda jilmayib turgan ittifoqdoshlarga aylantirdi.⁴

Savdo to'siqlari: Ammo, hammasi o'ylanganiday silliq o'tmadi. Davlatlar o'z pozitsiyalarini o'zgartira boshladi. Hindiston kompaniyalarga ularning mahsulotlarini Hindiston chegaralaridan chiqmasligi uchun haq to'lashni boshladi, asosan tibbiyot va elektronika tovarlari uchun. Janubiy Koreya bo'lsa "Green industry" infrastrukturasini o'zlari yaratishga qaror qilishdi. Yaponiya o'z kompaniyalarini Xitoy olib chiqishni boshladi. Avstraliya esa noyob yer qazilma qazuvchi konlarining faoliyatini xorij hududlari o'rniga faqat Avstraliya chegaralari ichida amalga oshishini ta'kidlashni boshladi. Nigeriya o'zlari ishlab chiqarishga qodir bo'lgan masalan guruch va sementga o'xshash tovarlarning importiga chek qo'ydi. Yevropa mamlakatlari esa hukumat mablag'larini qishloq xo'jaligi, energiya avtomobil sanoati kabi tarmoqlarni o'z hududi ichida rivojlantirishga sarflamoqda. Hukumat tadbirkorlarni tovarlarini birinchi o'rinda mamlakat ichida sotishga ruhlantirmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari mikrohiplarni Osiyo yordamisiz aynan AQSH hudida ishlab chiqarishga qaror qildi. Bu holar boshqa sanoatlarda ham sodir bo'lmoqda. Xususan, kon mahsulotlari, avtomobilsozlik va energiya sohalari. AQSHning amaldagi prezidenti Joe Biden mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash maqsadida import mahsulotlari uchun boj soliqlarini oshirishni allaqachon boshlab yuborgan. Bundan tashqari hukumat ba'zi bir Amerika mahsulotlarini Xitoy Xalq Respublikasi eksport qilishni taqiqladi. Shu bilan birgalikda Xitoyda AQSHga kiruvchi har qanday investitsiya jiddiy tekshiruvga olingan.⁵ Va bu savdoda ulkan o'zgarish bo'ldi. Qaysidur ma'noda globalizatsiya o'z kuchini yo'qotdi.

Bu qanday yuzaga keldi: Xo'sh bunday o'zgarishlar qanday sodir bo'ldi? Javob oddiy – Xavfsizlik yoki himoya. Quyida bunday o'zgarishga sabab bo'lgan to'rtta himoya turi keltirib o'tiladi. Birinchisi – ishchilar. Global iqtisodiyot davrida foyda ko'rgan g'oliblar bo'lgani singari mag'lublar ya'ni o'zlarini ishlarini yo'qotgan va arzonroq hududlar ko'chib ketgan oddiy aholi ham bor edi. Gap shundaki, yopilgan korxonalar va ishsiz jamiyatlarning qolgan aholiga yaxshigina ruhiy ta'siri bor. Aniqrog'i qolgan aholida ham shunday qo'rquv paydo bo'ladiki, ular o'z ishlaridan chet el arzon ishchi kuchi yoki bo'lmasam sun'iy intellect tufayli ayrilib qolishlari

⁴ Globalization and Politics Kirish tartibi: <https://www.annualreviews.org/doi/10.1146/annurev.polisci.3.1.43> (murojaat qilingan sana: 28.12.2023)

⁵ Fact Sheet: Biden-Harris Administration Driving U.S Battery Manufacturing and Good-Paying jobs. Kirish tartibi: <https://www.whitehouse.gov/briefing-room/statements-releases/2022/10/19/fact-sheet-biden-harris-administration-driving-u-s-battery-manufacturing-and-good-paying-jobs/> (murojaat qilingan sana: 29.12.2023)

mumkin. Shuning uchun Qo'shma Shtatlar aholini tinchlantirish va mahalliy ishchi kuchini saqlash maqsadida pulni ma'lum sektorlarga sarflaydi. Ikkinchi xavfsizlik bu iqlim hisoblanadi. Ba'zida fabrikalar, zavodlar va boshqa muassasalarning havoga qanchalik zararli moddalarni ishlab chiqarayotganligi e'tibordan chetda qoladi. Biz yashayotgan olam borgan sari iqlim krizisiga qarab yaqinlashmoqda. Ba'zi hududlar allaqachon bundan aziyat chekishyapdi. Hukumatlar bozorni jiddiy ravishda elektr avtomobillar, quyosh panellariga va boshqa yashil infrastrukturallarga bog'lash kerakligini anglab yetishdi. Ammo globalizatsiya bu ishga qodir emas. Agar, hukumat yuqoridagi ishni bajarmasa biz jiddiyroq muammolarga duchor bo'lishimiz mumkun.⁶ Uchinchi, taklif zanjiri. Global iqtisodiyotning eng zo'r taraflaridan biri shuki, bizning mahsulotlarimiz mukammal vaqtda, mukammal joyda dunyo bo'ylab tarqalgan materiallardan tayyorlanadi va do'konlarga yetkazilib sotishga tayyor holatga keltiriladi. Taklif zanjiri mukammal va to'xtovsiz ravishda ishlardi, ammo, pandemia davrida bu sistema ishdan chiqdi va dunyo bo'ylab odamlar o'zlari xohlagan yoki bo'lishiga o'rganib qolgan mahsulotlarsiz qoldi. Ammo, iqtisodchilar COVID davrida ham taklif zanjiri benuqson ishlashini ta'kidlayverishdi. Lekin, Massachusetts Texnologiya Institutining akademiklarini aytishicha o'sha davr mobaynida sistema butunlay ishdan chiqqan.⁷ Va yakuniysi geyosiyosiy raqiblar himoya deb ataladi va bu Amerika sobiq prezidenti Bill Clintonning g'oyalarini butkul inkor qiladi. Ya'ni, erkin savdo Xitoyda demokratik revolutsiyani vujudga keltira olmaydi. Xitoy global iqtisodiy tizimga o'tganidan so'ng juda sovuqqon va badavlat o'lkaga aylandi va Amerikani o'zi tuzgan o'yin bo'yicha qiynay boshladi. Hozir Xitoy eng qudratli armiyalardan biriga ega va u bu armiyani o'z hududi atrofiga ta'sir ko'rsatishda ishlatadi. Ayni damdagi boyligini esa dunyoda ta'sir doirasini kengaytirishda ishlatadi. Masalan, boshqa mamalakatlariga katta miqdor qarz beradi va ko'pincha Xitoy AQSHdan tojni tortib olishga urinayotganday ta'surot qoldiradi. Va Amerika Xitoyga mikro chiplar sohasida bog'liqlikni uzish uchun harakatlarni amalga oshirmoqda. Xususan, ular bu sohada ko'proq Tayvan bilan aloqalar olib borishyapdi va sharqdagi microchip ishlab chiqaruvchi kompaniyalarini Ohayo shtatiga ko'chirish harayonlarini boshlashdi. Shuni ta'kidlash kerakki, agar biz iqtisodiy tomonlama bog'langan bo'lsak ancha xavfsizroq bo'lamiz degan g'oya noto'g'ri. Chunki, bu bog'lamlar qaysidur ma'noda kanfliktlarga olib kelishi mumkun. Masalan, Xitoy boshqa davlatlarga juda mihim mahsulotlarni, jumladan, qurollarni ishlab chiqarishga kerak bo'ladigan noyob yer resurslari bo'yicha o'z mintaqasida monopolist. Agar qolgan davlatlar bu sohada Xitoyga bog'lanib qolishsa Xitoy bu omilni o'zining quroli sifatida ishlatishi mumkun. Shunga o'xshash voqea allaqachon sodir bo'lgan. Yevropa Rossiyaga nisbatan sanksiya qo'llaganidan so'ng, Rossiya Yevropani butunlay gabsiz qoldirgan. Chunki, Yevropa mamlakatlari bu sohada Rossiya federatsiyasiga bog'lanib qolgandi. Mamlakatlar global erkin savdoda o'zlari ko'rayotgan kuchsizliklarga reaksiya bildirib boshlashdi. Ular bunga "Protection" nomi bilan to'siqlar qo'yishni boshlashdi. Bu holat bir ming to'qqiz yuz o'ttizinchi yillar davridagi voqealarni eslatmoqda. Unda o'sha to'siqlar ikkinchi jahon urushini boshlanishiga katta turtki bo'lgan edi.

⁶ How Globalization Works. Pros and Cons of Globalization Kirish tartibi: <https://www.masterclass.com/articles/how-globalization-works-pros-and-cons-of-globalization> (murojaat qilingan sana: 29.12.2023)

⁷ Economic Globalization and the COVID-19 pandemic: global spread and inequalities. Kirish tartibi: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC8916502/> (murojaat qilingan sana: 29.12.2023)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ayni vaqtda globallashuv jarayoni bir muncha sekinlashgan. Ko'plab davlatlar ma'lum sabablar ko'ra ba'zi sohalarni mahhalliylashtirmoqda. Ammo, hozirgi zamonaviy dunyoda globallashuvdan qochishning iloji yo'q. Ko'plab turli sohalarda mamlakatlar turli davlatlar bilan iqtisodiy birlashadilar. Bundan shuni bilish mumkinki. Globallashuv doimo har bir davlatning iqtisodiy hayotida doim mavjud bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. What is globalization? Kirish tartibi: <https://www.piie.com/microsites/globalization/what-is-globalization> (murojaat qilingan sana: 28.12.2023)
2. Has globalization passed its peak? Kirish tartibi: <https://www.statista.com/chart/21821/global-trade-volume-as-a-percentage-of-gdp/> (murojaat qilingan sana: 28.12.2023)
3. Is Globalization Good for the Poor in China? Kirish tartibi: <https://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/2002/09/wei.htm> (murojaat qilingan sana: 28.12.2023)
4. Globalization and Politics Kirish tartibi: <https://www.annualreviews.org/doi/10.1146/annurev.polisci.3.1.43> (murojaat qilingan sana: 28.12.2023)
5. Fact Sheet: Biden-Harris Administration Driving U.S Battery Manufacturing and Goog-Paying jobs. Kirish tartibi: <https://www.whitehouse.gov/briefing-room/statements-releases/2022/10/19/fact-sheet-biden-harris-administration-driving-u-s-battery-manufacturing-and-good-paying-jobs/> (murojaat qilingan sana: 29.12.2023)
6. ¹ How Globalization Works. Pros and Cons of Globalization Kirish tartibi: <https://www.masterclass.com/articles/how-globalization-works-pros-and-cons-of-globalization> (murojaat qilingan sana: 29.12.2023)
7. Economic Globalization and the COVID-19 pandemic: global spread and inequalities. Kirish tartibi: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC8916502/> (murojaat qilingan sana: 29.12.2023)
8. Growing Threats to Global Trade. Kirish tartibi: <https://www.imf.org/en/Publications/fandd/issues/2023/06/growing-threats-to-global-trade-goldberg-reed> (murojaat qilingan sana: 29.12.2023)
9. Globalization. Kirish tartibi: <https://en.wikipedia.org/wiki/Globalization> (murojaat qilingan sana: 29.12.2023)

Brainstorming: Globalizatsiya

- 1) Globalizatsiya atamasi
- 2) Globallashuvning qanday vujudga kelganligini
- 3) Global savdoni mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri
- 4) Bu mavzuni qanchalik jiddiyli
- 5) Globalizatsiya tiziming qanday ishlashi
- 6) Globallashuvning yaxshi va yomon tomoni

Maqsad/Vazifalari

Maqsad: Globalizatsiya

- 1) Globallashuv davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga qanday ta'sir qilganligini haqida ma'lumot berish
- 2) Global savdo davlatlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilganini aniqlash
- 3) Globalizatsiyaga bo'lgan to'siqlarni ta'riflash
- 4) Globallashuvning pasayganligini isbotlar orqali ko'rsatib berish
- 5) Nima sababdan mamlakatlar globallashuvdan qochayotganligini tushuntirish